

AGROMATNLARDA DEYKSISNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI HAQIDA

Bozorova Munisa

Samarqand davlat chet tillar instituti

E-maol: bozorova-m@milsamdhti.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlarda deyksis vositalarining lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Deyksis hodisasining kognitiv tilshunoslik doirasida o'rganilishi va uning metafora, mental makon nazariyasi, kognitiv grammatika bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Nominal va gap doirasida nazariy asoslash tamoyillari asosida deytik birliklarning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy matnlarda muallifning fikr aniq va ishonchli tarzda yetkazilishida deytik elementlarning ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: deyksis, kognitiv tilshunoslik, kognitiv grammatika, nazariy asoslash,

Til birliklarining haqiqiy ma'nosi ularning kontekstida namoyon bo'ladi. Nutq ifodasi esa faqat lingvistik elementlardan iborat emas, balki nutq vaziyati, ishtirokchilar va ularning o'zaro aloqasini ham qamrab oladi. Kognitiv tilshunoslik insonning nutq vaziyatida tildan foydalanishning ahamiyati va farqli tomonlarini o'rganishga qaratilgan bir soha bo'lib so'nggi yillarda tilshunoslikning dolzarb o'rganish sohasi bo'lib qolmoqda. Kognitiv tilshunoslik o'zida bir nechta oqimlarni qamrab olgan bo'lib, ular tilni bir nechta xususiyatlarini o'rganish bilan farqlanadi. Kognitiv tilshunoslik majmuaviy tadqiqot yo'nalishi (sohasi) bo'lib, u tilshunoslik va psixologiyadan tashqari, sun'iy intellekt nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi fan sohalariga oid ilmiy yondashuvlarni ham umumlashtiradi. Mazkur maqolamizda biz pragmalingvistikaning o'rganish obyekti bo'lmish deyksis hodisasining, kognitiv tilshunoslikda o'rganilishi va unga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz. Maqolada ayni qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlarda uchraydigan deytik vositalarning lingvokognitiv xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Deyksis atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, "ko'rsatish, ishora qilish" ma'nolarini bildiradi. Deyksis hodisasi kognitiv lingvistikada bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular turli nazariyalar jihatidan mazkur hodisani o'rganishgan. Kognitiv tilshunoslikdagi metafora hodisasini talqin qilgan olm J.Lakoff deyksisni metafora hodisasi misolida tahlil qilgan bo'lsa, J.Fakonnier uni mental makon nazariyasi vositasida tahlilni amalga oshirgan. Deyksisning intellektual kognitiv modellarga ajratgan holda o'rgangan Kroft va Kruz o'zlarining ishlarida ko'proq makon deyksisiga ahamiyat berishgan edi.

Biroq deyksis hodisasining kognitiv tilshunoslikdagi o'rganilishi kognitiv grammatika bilan chambarchas bog'liqdir. Kognitiv grammatika tilni insonning bilish jarayonlari bilan bog'laydi, ya'ni til o'z-o'zidan alohida tizim emas, balki inson ongining faoliyatidir. Semantik strukturalar tilning ma'no tomonini ifodalaydi, fonologik strukturalar esa tovush tizimini tavsiflaydi. Ularning ramziy aloqalari esa ushbu ma'no va tovush birikmasidan hosil bo'ladigan til birliklarini tashkil etadi. Bu til birliklari inson tafakkurining ramziy ifodalaridir.

An'anaviy tilshunoslikda morfologiya so'z shakllarini, sintaksis esa so'zlarning gapdagi o'rnini o'rganadi. Kognitiv grammatika esa ularni ramziy konstruksiyalar sifatida ko'radi, ya'ni

har bir grammatik shakl va tuzilma o'ziga xos semantik (ma'no) mazmunga ega. Barcha grammatik elementlar, hatto eng kichiklari ham, ma'no tashuvchi ramzlardir. Bu kognitiv grammatikaning boshqa nazariyalardan farqli tomonidir, chunki u tilni jonli va dinamik jarayon sifatida ko'rib chiqadi. J.Langaker kognitiv grammatikaning asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, deytik belgilarning kognitiv faoliyatdagi o'rni haqida ham muhim fikrlarni bildirib o'tgan. Kognitiv grammatikdagi nazariy asoslash- grounding theory deyxsisni anglash jarayonlaridagi faoliyat mexanizmini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu to'g'risidagi bilimlarni tilshunos olimlar F.Brizard, R.Lauri, R.Epshteynlar hamda umumiy nazariy bilimlarni Langakerning asarlaridan olishimiz mumkin.

Nazariy asoslash g'oyasi tildagi grammatik tuzilmalarning ma'noni anglash jarayonlaridagi faoliyatini asoslab beruvchi hisoblanadi va u ikki turga bo'linadi:

1. Nominal (so'z doirasida)
2. Gap (gaplarning bog'lanishi doirasida)

So'z doirasida deyxsisning ifodalanishini nazariy asoslash g'oyasiga ko'ra bir qancha vositalar keltiriladi. Otlar va uning birikmalari gap tarkibida yoki matn tarkibida kelib ma'lum qismlarga ishora qilish, uni adresatga ko'rsatish vazifasini bajaradi. Shu orqali ular deytik ishorani amalga oshiradi. Bu holatda kelib ishorani amalga oshiruvchi vositalar sirasiga ingliz tilidagi otlarning artikl hodisasi misol qilib keltiriladi:

The berries (B1–B12) thus gathered, were dried immediately at low temperature, (45 °C), powdered finely using a grinder (BJ-150, Zhejiang Baijie Co., Ltd., China) and refrigerated for later use at 4 °C. Next, the samples were subjected to ultrasonic extraction using 70% (V/V) ethanol solution and deionized water for 1 h, at room temperature. (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100603:2)

Yuqorida berilgan misoldagi keltirilgan "the samples" birikmasini muallif o'zi aniqlab bergan ya'ni qay tariq tayyorlangan namunalar ekanligiga ishora qilib, o'quvchi uchun aniq ekanligini belgilab bergan. Ingliz tilidagi "the" artikli agromatnlar tarkibidagi muallif beriyatgan ma'lumotlarning aniqligini va tekshirilganligini aniqlash uchun ishlatiladi. Aniqlikni ifodalashda artiklni qo'llagan so'zlovchi berilayotgan fikr aniqligini va asoslanganligini ham yoritishi mumkin.

Nominal asoslashni ko'rsatib beruvchi vositalar sirasiga ko'rsatish olmoshlari "this" va "that" ham kiritiladi:

This section summarized and connected disparate research on the application and research conditions for AI in food adulteration detection as revealed in Table 1. (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100590 6)

Agromatnlar tarkibidagi "this" olmoshining qo'llanishi deytik yoki anaforik ko'rsatkich bo'lishiga qaramasdan, muallif bunda o'zining nuqtayi nazarini o'quvchiga yetkazish uchun muloqot markazini belgilab bergan va hu bilan birgalikda bunda o'quvchi o'zining qanday ma'lumotlarni olishi uchun oldindan ma'lumot berilgan holda, uning kognitsiyasida bu uchun joy ajralishiga ko'maklashgan.

Janssenning fikriga ko'ra, olmoshlarning ma'nosi va referentsiyasi nutq vaziyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, ular kommunikatsiyada ishtirokchilar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlaydi.

Gaplar tarkibidagi grounding – nazariy asoslashning epistemic asoslarini Langaker subyektivlik va obyektivlik tarzida ifodalash imkoniyatlarini beruvchi bi vosita sifatida ko'rsatsa ham, boshqa vositalar ham bundan mustasno emasligini ham ta'kidlab o'tadi. Unga ko'ra, subyektivlik nutqchining shaxsiy nuqtai nazarini, hissiyotlarini yoki fikrlarini aks ettiradi.

Obyektivlik esa voqelikni neytral tarzda tasvirlaydi. Grammatik tuzilmalar bu tushunchalarni ifodalashga yordam beradi, shu orqali nutqchi o'z munosabatini bildirishi yoki faktlarni bayon qilishi mumkin. F.Brizard modallikni gap doirasidagi nazariy asoslashning muhim qismi sifatida ko'radi, chunki u gapning ma'nosini nutqchining subyektiv qarashlari bilan bog'laydi. Modallik gapiruvchining voqeaga bo'lgan munosabatini, ya'ni ishonchi, istagi, ehtimoli yoki majburiyatini ifodalaydi.

I think it could be lovely if we could do this in a more natural way which is biological nitrogen fixation by legumes.(Climate smart agriculture 612)

Keltirilgan misolda muallif o'zining berayotgan fikriga to'liq ishonchi komil emasligini "could" modal fe'li vositasida izohlab kelib, fikrlariga qanchalik darajada amin bo'lishining shartli ekanligini esa "if" yordamida bildirgan. Berilgan fikrning faqat muallif nuqtayi nazaridan ekanligini anglash uchun esa "I think" iborasi gapdagi o'quvchining fikrini boshqarish va uni to'g'ri yo'nalishga tortishga yordam beradi. Agromatnlar tarkibida berilgan ma'lumotlarda mualliflarning modal fe'llar yordamida fikrlarga muanosabati yoki olingan natijalarning berilishida ishlatilishida ularga ishorani berish mumkin.

Bundan tashqari, fe'l zamonlari ham matn tarkibida o'quvchiga ishorani bildirib keluvchi o'quvchini ma'lum bir zamonga yetaklovchi bir vosita hisoblanadi. Agromatnlar tarkibida ilmiy matnlarga xos ravishda hozirgi zamondagi gaplardan foydalanish xususiyatlari ko'plab uchrasada, adabiyotlar sharhi va natijalar hamda xulosa qismida zamonlarning o'zgarishi o'quvchini zamonlarning turli oqimiga olib kirishi bilan farqlanadi:

The reduction in regrets exceeded 50% of the investment cost in two case studies in the northern part of the country.The decline in crop yields will have significant consequences also for the national economy, by 2050 reducing GDP (compared to the no-climate change scenario) by up to 4.5%. Climate change is also projected to increase net import of various crops, particularly rice and other cereals.(Climate smart agriculture 308)

Yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi misolda muallif o'zining aniqlangan natijalarini berishda tugallanganlikni ifodalash uchun o'tgan zamon shaklidan foydalangan bo'lsa, natijalar asosida kutilayotgan voqelikni ikki xil zamon shaklida ya'ni kelasi zamon va hozirgi zamon shaklida ifodalagan. Agromatnlar uchun xos holatlardan biri sifatida hozirgi zamonning faqatgina hozirni emas balki o'tmishdagi va kelajak uchun taxminlarni bera olish xususiyatini keltirish mumkin.

Deyksis hodisasi kognitiv lingvistikada bir qancha olimlar tomonidan turli nazariyalar asosida o'rganilgan bo'lib, ulardan eng kattasi sifatida Langaker asos slogan kognitiv grammatika hisoblanadi. Deyksisning gap va uning qismlaridagi ishorasini o'rgangan olimlar uning ikki asosda: nominal va gaplar orasidagi bog'liqliqni nazariy asoslash sifatida o'rganishgan. Nominal birliklar asosida deytik ko'rsatishni asoslash sirasiga olimlar artikl, egalik va ko'rsatish olmoshlarini kiritgan holda, ular muallifga uning fikrlarini ko'rsatmoqchi bo'lgan qismiga ishorani amalga oshirish imkoniga ega deb bildirishadi. Gaplar orasidagi deytik belgilovchi vositalarga esa modal fe'llar, fe'l zamonlarini kiritish mumkin bo'lib, agromatnlarda bu kabi vositalar, muallifning o'zi bilfirgan fikriga ishonchni hamda tugallanganlikni ifodalaydi. Fe'l zamonlari vositasida esa ilmiy izlanishlarning zamonlar tarmog'ida joylanishi o'quvchiga yo'naltirishi amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brisard, Frank, ed. Grounding: The epistemic footing of deixis and reference. Vol. 21. Walter de Gruyter, 2012. 512p
2. Fauconnier G. "Mental spaces." The Oxford handbook of cognitive linguistics 2007: 351-376.
3. Lakoff G. "Conceptual metaphor." Cognitive linguistics: Basic readings 34 2006: 185-238.
4. Langacker, Ronald W. "Cognitive grammar." Concise History of the Language Sciences. Pergamon, 1995. P 364-368.
5. Langacker, Ronald W. "Cognitive grammar." Cognition and pragmatics. John Benjamins Publishing Company, 2009. 78-85.